

ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK ME'ROSI

*Abdulaminova Adolat Abdurasul qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lif fakulteti,
Logopediya yo'nalishi talabasi
abdulaminovaadolat@gmail.com*

Annotatsiya: XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning pedagogic qarashlari, faoliyati va u amalga oshirgan ishlarning bugungi kundagi salmog'i borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, ta'lif-tarbiya, odob-axloq, adabiyot, til, pedagogika.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АБДУЛЛЫ АВЛАНИ

Аннотация: Одним из известных представителей узбекской национальной культуры конца XIX начала XX века является просветительский поэт, драматург, журналист, ученый, государственный и общественный деятель Абдулла Авлони. В этой статье рассматриваются педагогические взгляды Абдуллы Авлани, его деятельность и значение проделанной им работы на сегодняшний день.

Ключевые слова: Абдулла Авлани, образование, этикет, литература, язык, педагогика.

PEDAGOGICAL ARCHITECTURE OF ABDULLAH AVLANI

Annotation: One of the famous representatives of the Uzbek national culture of the late 19th century at the beginning of the 20th century is the enlightened poet, playwright, journalist, scientist, statesman and public figure Abdullah Avlani. This article discusses the pedagogical views, activities of Abdullah Avlani and the significance of the work he carried out today.

Keywords: Abdullah Avloni, education, etiquette, literature, language, pedagogy.

KIRISH

O'zbek madaniyatining namoyondalaridan biri, pedagog, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrida to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Abdulla Avloniy boshlang'ich diniy maktabda va madrasada o'qidi, ilm-fanga ixlos qo'ydi. O'zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini chuqr o'rgandi. Abdulla

Avloniy 14 yoshidan boshlab she'rlar yozishni mashq qila boshladi. Uning bu davrda yozgan ilk she'rlari o'sha davrdagi gazeta va jurnallar sahifalarida bosilib chiqdi. Abdulla Avloniy xalqni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni o'zining birdan bir burchi deb bildi va 1904-yilda o'zi tug'ilib o'sgan –Mirobodda maktab ochdi. O'sha davr xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Alifbe", "Ikkinchi muallim", "O'qish" kitoblari katta rol o'ynadi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda o'zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avloniyning mualliflik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari jadidchilikning muhim qanoti amaliy ma'rifatchilikning yo'naliш va xususiyatlarini belgilashga yordam bersa, she'rlari XX asr o'zbek milliy she'riyatining maydonga kelishi va tarixiy takomilini tayin etishda qimmatli materiallar beradi.

Ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy ijodida markaziy o'rin egallaydi. Ma'rifatparvar adib ilm-fanning fazilatlarini har tomonlama ochib berishga harakat qiladi. "Maktab", "maorif", "ilm", "fan" kabi tushunchalar adib merosida ezgulik va taraqqiyotning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tarilgan, "jaholat" va "nodonlik" esa zulmat yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Abdulla Avloniyning milliy ma'naviyatimiz va madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatparvarlikning xususiyatlarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Uning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatları bilan chambarchas bog'langanligi, adibning boy pedagogik me'rosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirishda, axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi, tarbiya masalasining ifodasi, nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta'limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga amin bo'lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, g'oyaviy, falsafiy pedagogik tushuncha va hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz.

U birinchilardan bo'lib, o'zbek teatrini professional teatrga aylantirdi, matbuot, maorif sohasi rivojiga katta hissa qo'shdi. U Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Abdulla Avloniy ko‘plab asarlarini o‘z davri muammosi bo‘lgan ta’lim-tarbiyaga qaratgan holda yozgan. Bola kamolotida zakovat va fikrning ijobiyligi ta’sir kuchiga g’oyat yuqori baho berar ekan, u shunday deydi: “Zakovat insonning eng yaxshi fazilatlaridandir. Zakovatli kishilar biron ishni boshlamoqchi bo’lsalar uni har taraflama o’ylab ko’radilar. Shuning uchun ham ular katta hayotiy tajriba orttirib, kamolotga erishadilar. Zakovat hayotning barcha mushkul va jumboq masalalarini hal qilishda odamga hamrohdir. Fikr tarbiyasi esa, eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan vazifadir”. Shuning uchun Abdulla Avloniy bolaning fikrlash qobiliyatini o’stirishda muallimning roli katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Avloniyning ona tiliga muhabbati o‘zgacha edi. U tilga, madaniyatga muhabbatni har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbati deb qaraydi va tilni yo‘qotishni eng katta fojea deb biladi. Uning “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan-kun unutmak va yo‘qotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiyligi, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz” – degan bitiklari bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Hozirda ham o‘z ona tilini chetga qo‘yib, o‘zga tilni himoya qilayotganlarga qamchi sifatida qo‘llanilayotgandek go‘yo.

Uning ijodi g‘oyaviy kurashlar g‘oyat keskinlashgan davrga to‘g‘ri kelishiga qaramasdan ma’rifat va taraqqiyot uchun kurashishni o‘ziga asosiy maqsad qilgan. Bu yo‘lda Vatanga, o‘z xalqiga, uning tiliga, madaniyatiga muhabbatni va uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulq hisoblagan. Ayniqsa, tilning mavqeini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratgan.

Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari juda katta ahamiyatga molikdir. Ta’lim- tarbiyaga bag‘ishlangan noyob va mukammal bu kitob har tomonlama yetuk, sog‘lom fikrli kelajak avlod va zamonaviy pedagoglarni tarbiyalashga xizmat qildi. Bu asarda mutafakkur vatanparvarlik, ona tiliga muhabbat, dostlik, vijdoniylilik, bilimlilik, aql, jaholat, g‘azab kabi xislat va illatlar haqida fikr yuritadi va xulosalar chiqaradi. Abdulla Avloniy ushbu asarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi va asar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik, qo‘llanmalar yaratilishiga asos bo‘ldi. Uning pedagogika, tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g‘oyasining targ’ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid

fikrlar milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo’lib xizmat qiladi. Bu ulug’ adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz. Avloniyning mehnatlari yuksak qadrlanib, unga o’zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda uzoq yillik mehnati uchun 1925-yilda “Mehnat qahramoni” unvoni, 1930-yilda “O’zbekiston maorifi zarbdori” unvoni berilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 1-oktabr – O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagи nutqida ta’kidlaganidek, 20 asr boshlarida “Abdulla Avloniy, Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo’jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug’ insonlar milliy uyg’onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o’zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar. Ming afsuski, jadid bobolarimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalgalashga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermadi. Ma’rifat fidoyilari o’sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qildi. Shu tariqa milliy uyg’onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo‘lib qoldi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yoxud axloq.T.,2008.
2. Ўқитувчи ва мураббийлар янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир /Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 1-октябр – Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқи// Халқ сўзи, 2020 йил 1 октябрь, 207 (7709).
3. Абдуллаев К.Ф. Мыслители востока о педагогической профессии //Культура мира и насилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические условия развития. 2020. – С. 117-120.